

O'ZBEK VA INGLIZ TILI OAV DA TAHLILIIY JANR KORRESPONDENSIYANING O'RNI

O'qituvchi: Yashnarbekova Sh

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tili OAV ning xususiyatlari, janrlari, tahliliy janrlarning turlari yoritilgan. Shuningdek, tahliliy jarnga kiruvchi korrespondensiya haqida batafsil ma'lumot berilib, uning har ikki tildagi o'rni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: OAV, tahliliy janr, korrespondensiya, axborot korrespondensiya, tahliliy korrespondensiya, ingliz korrespondensiyasining turlari.

KIRISH

Publitsistika so'z san'ati, obrazli tasavvurlarga tayanib ijtimoiy fikrga ta'sir etuvchi ijod turi deyish bilan birga publitsistikaning oshkoraliq bilan ham chambarchas b o g 'liqligini aytib o'tish kerak. Publitsistika faqat axborot emas, balki muammolar tahlili, hayotiy faktlarni o'rGANISH xususiyatlariga ega bo'lgan ijod turi. Matbuot janrlarining hammasi publitsistikaga kirishini e'tirof etish kerak.

OAV sohasiga mansub tahliliy janrlar ham matbuotda katta o'rIN egallay. Ularning boshqa janr turlaridan farqi, tinglovchilarga axborot yetkazish yoki ularni obrazlar asosida ta'sirlantirish emas, balki berilayotgan ma'lumotlarni faktlar asosida tahlil qilib, mavzuga chuqur yondashib tinglovchiga uZatishdan iborat. Tahliliy janr turlariga quyidagi janrlar kiradi:

Korrespondensiya	Tahliliy korrespondensiya, axborot korrespondensiya
Maqola	Bosh maqola, nazariy maqola, tashviqot xarakterdagи maqola, muammoli maqola, tanqidiy maqola, ilmiy-ma'rifiy maqola
Taqriz	-
Sharh	Umumi sharh, mavzuli sharh, axborot sharh
Obzor	Mavzuli obzor, umumi obzor, axborot abzor

Korrespondensiya – (lotincha so‘z bo‘lib, «javob beraman, bildiraman» degan ma’nolarni anglatadi) gazeta publitsistikasining asosiy va qadimgi tezkor janrlaridan biri. Uning asosini dolzarb mavzuni unchalik katta bo’lmagan ko’lamda tadqiq qilishni talab etadi.

ASOSIY QISM

Korrespondensiya publitsistika janrlari orasida muhim o ‘rinlardan birini egallaydi. Unda aniq ijtimoiy jarayon ifodalanadi. Axboriy maqoladan farqli ravishda, u ma’lumotni tahlil qilish xususiyatiga ham ega. Muallif korrespondensiyada faktlarni shunchaki yetkazmasdan, balki voqeа yoki hodisani har tomonlama ifodalaydi , baholaydi, izohlaydi. Agar maqola tadqiqot yakunini ifoda etsa, korrespondensiya tadqiqot jarayonini ko’rsatadi, tadqiqot uslubini ochib beradi. Korrespondensiyada fakt markaziy o ‘rinni egallaydi, mazmunining asosini tashkil qiladi. Korrespondensiya gazetxonlarda fikr uyg‘otishga, hayotning mavjud muammolarini his qilishlari-yu anglashlariga yordam beradi.

Korrespondensiyaning belgilaridan biri – tor ko’lamdagi xulosalar va umumlashmalar. Bunda korrespondensiya mualliflari umumlashmalar va xulosalarni alohida va umumiyl, yakuniy xarakterda qiladi. Matn mazmunida mavjud bo’lgan bu xulosalar, umumlashmalar, yo’llanmalar aniq adresga qaratilgan bo’lishi kerak. Shuningdek, korrespondensiya bevosita mustaqil faktlar orqali xabar qilish xususiyatiga ega. Faktlar korrspondensiyada ishlab chiqilgan mavzuning hujjatli asosi hisoblanadi. Korrespondensiyanı muallif voqeа sodir bo’lgan joyga bormay, mavzuga oid masalalarni chuqur o ‘rganmay turib yozishi mumkin emas. Demak, korrespondensiya tezkorlikni, aniq mavzu va aniq manzil bo’lishini taqozo etadi.

Korrespondensiyada m a’lum davr va o ‘rindagi aniq ijtimoiy jarayon qamrab olgani sababli, uning ikki turi mavjud:

1. *axborot korrespondensiya*
2. *tahliliy korrespondensiya.*

Axborot korrespondensiyada, odatda, muallif shaxsan o‘zi ko‘rgan voqealarni yoritadi, xabarlarni dalillar asosida tahlil etadi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi.

Tahliliy korrespondensiyada ijtimoiy-siyosiy ahimiyatga ega bo’lgan dalillar demokratik nuqtayi nazardan tahlil etilib, amaliy xulosalar chiqariladi».

Korrespondensiya yozishdan oldin, reja tuzib olinishi zarur. Uning tiliga e ’tibor qaratish juda muhim. Unda maqol, matallardan foydalanish, lirik chekinishlar qilish, chiroyli yakun topish korrespondensiyani boyitadi Hech qachon tanqidiy korrespondensiyada shaxs yoki jamoatga haqorat so‘zлari ishlatish mumkin emas. Aksincha, mavjud xatolarni tez tuzatish, kamchiliklarni yo‘qotish uchun nimalar qilish zarurligiga e’tiborni qaratish muhim. Korrespondensianing muvaffaqiyati uning ishonarli tarzda yozilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ingliz matbuotida korrespondensiya juda muhim va faol janr hisoblanadi. Ingliz tilida korrespondensiya “correspondence” deb yuritiladi va uni ustida ish olib boruvchi muxbir “correspondent” deyiladi. Xususan, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda bu “corrspondent” atamasi, odatda, maxsus sohalarda mukammal ish olib boruvchilar uchun qo’llaniladi. Masalan, sog’liq sohasidagi correspondent. Korrespondet to’g’ridan –to’g’ri vakolatlarga ega bo’lib, u butun jamiyat tomonidan ham javob berishi mumkin. Korrespondentlar o’z navbatida turlarga bo’linadi:

Capitol correspondent – bu hukumat bosh qarorgohidan xabar berib, va u yerdagi o’zgarish, yangiliklarga o’z xolis bahosini berib, tahlil qilib, xalqqa yetkazadigan muxbir.

Legal correspondent (huquqiy korrespondenti) – yuridik, dalat ahamiyatiga ega bo’lgan jinloyat, sudlarni sharhlab, ularni tahlil va baholab tinglovchiga yetkazadigan muxbir.

Red carpet correspondent – bu premere, mukofot va festival kabi ko’ngilochar yoki media tadbirlarini(odatda, bunday marosimlar qizil gilam to’shagan yo’lakda bo’lib o’tadi) baholab, tahlil qiladigan correspondent.

Foreign correspondent (xorijiy correspondent) – chet el mamlakatlaridan korrespondensiyani yuritadigan correspondent.

War correspondent – bu urush ketayotgan davlatlardan vaziyatni tahlil qilib, baho beradigan muxbir.

XULOSA

Ingliz OAV sohasida korrespondensiya va correspondent muhim ahamiyatga ega bo’lgan atamalardir. Hattoki, matbuotda korrerspondentlar tarmog’i Germaniyada ARD, Buyuk Britaniyada esa BBCga tegishli.

Korrespondensiya ingliz ommaviy axborot vositasida muhim o’rin egallaydigan janrlardan biri hisoblanadi. Undan ingliz OAv xizmati keng o’rinda qo’llab, muhim yangiliklarning aynan shu janr yordamida ommaga yetkaziladi. Agarda buni o’zbek OAv bilan solishtirsa, o’zbek OAVda korrespondensiya nisbatan kam qo’llaniladigan janrdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Абдусаидов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати.– Самарқанд, 2004, 5-20-б.
2. Armstrong C, Robinson Stuart (1988). The weekly newspapers an its readers. Journalism Quarterly.
3. Добросклонская Т.Г. Теория и методы медиалингвистики . – М., 2000.-С.4